

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XVII RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

SENTYABR, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:

<https://konferensiyalar.com>



Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil).– 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

FRAND SHARTLARINING HUQUQIY TABIATI VA STANDARTLASHTIRILGAN TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

Hazratqulova Sevinchbeka Shodiyor qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti,
Biznes huquqi va sud himoyasi fakulteti tadqiqot markazi
kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya. Mazkur tezisda Fair, Reasonable and Non-Discriminatory (FRAND) shartlarining shakllanishi, huquqiy tabiati hamda standartlashtirilgan texnologiyalardan foydalanish jarayonidagi ahamiyati tahlil qilinadi. FRAND shartlari, avvalo, standart-essential patentlar (SEP) bilan bog'liq litsenziyalash munosabatlarida patent egalari mutlaq huquqlari bilan texnologiyadan foydalanuvchi subyektlarning manfaatlarini o'rtasida muvozanatni ta'minlash vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda FRAND majburiyatlarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan standartlashtirish jarayonlari, standart ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning (SSO) patent siyosati va patent egalari litsenziyalash bo'yicha majburiyatlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, FRAND shartlarining "adolatli", "oqilona" va "kamsitmaydigan" mezonlari mazmuni ochib beriladi. Mazkur institutning O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti, telekommunikatsiya va innovatsion texnologiyalar bozoriga ehtimoliy ta'siri hamda milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurati yuzasidan xulosalar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: FRAND, SEP, patent, litsenziyalash, standartlashtirish, intellektual mulk, raqobat, texnologiya transferi.

THE LEGAL NATURE OF FRAND TERMS AND THEIR ROLE IN ENSURING ACCESS TO STANDARDIZED TECHNOLOGIES

Hazratqulova Sevinchbeka Shodiyor qizi

Tashkent State University of Law,
Junior Researcher, Research Center of the Faculty of
Business Law and Judicial Protection

Annotation. This thesis examines the origins, legal nature and practical significance of Fair, Reasonable and Non-Discriminatory (FRAND) terms in licensing standardized technologies. FRAND commitments primarily arise in the context of standard-essential patents (SEPs) and are intended to balance the exclusive rights of patent holders with the interests of entities seeking access to standardized technologies. The paper explores the development of standardization processes, intellectual property policies of standard-setting organizations (SSOs), and the licensing commitments undertaken by patent holders. Particular attention is given to the interpretation of the concepts of "fair", "reasonable" and "non-discriminatory" licensing. The study also considers the potential relevance of FRAND licensing for Uzbekistan's digital economy, telecommunications sector and technological development. The paper concludes by identifying several legal and institutional issues that may become increasingly important for Uzbekistan as the use of standardized technologies expands.

Keywords: FRAND, SEP, patent, licensing, standardization, intellectual property, competition, technology transfer.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ymdif-y2026v2i17/n18>

Kirish

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida zamonaviy texnologiyalarning katta qismi yagona texnik standartlar asosida faoliyat yuritmoqda. Mobil aloqa, Wi-Fi, Bluetooth, video va audio kodlash, Internet of Things (IoT) hamda boshqa texnologik tizimlarning o'zaro mos ishlashi aynan standartlarning mavjudligi bilan ta'minlanadi. Bunday standartlar texnologiyalardan foydalanishni soddalashtirishi bilan bir qatorda intellektual mulk huquqi, xususan, patent huquqi bilan bog'liq murakkab masalalarni ham yuzaga keltiradi.

Ayrim texnik standartlarning amaliyotga joriy etilishi patent bilan himoyalangan texnologiyalardan foydalanishni talab qilishi mumkin. Bunday patentlar odatda standard-essential patents (SEP), ya'ni standartning muhim talablarini bajarish uchun zarur bo'lgan patentlar sifatida tavsiflanadi. Agar muayyan patent standartni amalga oshirish uchun zarur bo'lsa, ushbu patent egasi bozordagi muhim iqtisodiy ustunlikka ega bo'lishi mumkin. Shu sababli SEP egasining patentdan foydalanishga ruxsat berish shartlari raqobat muhiti va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur vaziyatda Fair, Reasonable and Non-Discriminatory (FRAND) shartlari alohida ahamiyat kasb etadi. FRANDning asosiy maqsadi patent egasining huquqlarini inkor etish emas, balki standartga kiritilgan patentlangan texnologiyadan foydalanishni muvozanatli va oqilona litsenziyalash mexanizmi orqali ta'minlashdan iborat.

FRAND shartlarining kelib chiqishi

FRAND konsepsiyasining shakllanishini standartlashtirish jarayonining rivojlanishi bilan bog'lash mumkin. Texnologik standartlar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi subyektlar uchun yagona texnik talablarni belgilaydi. Bunda turli kompaniyalar tomonidan ishlab chiqilgan qurilma va texnologiyalarning o'zaro mosligi ta'minlanadi.

Standartlashtirish jarayonida patent bilan himoyalangan texnologiyaning muayyan standart tarkibiga kiritilishi muhim muammoga olib kelishi mumkin: standartni amalga oshirmoqchi bo'lgan boshqa kompaniya ushbu patentdan foydalanishga majbur bo'ladi. Natijada patent egasi texnologiyadan foydalanishni nazorat qilish bo'yicha sezilarli bozor kuchiga ega bo'lishi ehtimoli yuzaga keladi.

Shu sababli standart ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan intellektual mulk siyosatlari shakllantirilib, standartga kiritilgan patentlardan foydalanish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan litsenziyalash majburiyatlari rivojlangan. FRAND majburiyati aynan shu mexanizmning muhim elementlaridan biri sifatida shakllangan.

FRANDning o'ziga xos jihati shundaki, u patent egasining mulkiy huquqlarini bekor qilmaydi. Aksincha, patent egasi o'z ixtirosidan iqtisodiy manfaat olish imkoniyatini saqlab qoladi. Biroq litsenziyalash shartlari standartdan foydalanishni istagan subyektlar uchun asossiz to'siq yaratmasligi kerak.

FRAND shartlarining huquqiy mazmuni

FRAND atamasi uchta asosiy mezonni o'z ichiga oladi: fair — adolatli, reasonable — oqilona va non-discriminatory — kamsitmaydigan.

Birinchi navbatda, "fair", ya'ni adolatli shartlar litsenziyalash jarayonida tomonlarning manfaatlari o'rtasida muvozanat bo'lishini nazarda tutadi. Patent egasi o'zining intellektual mulkidan iqtisodiy manfaat olish huquqiga ega bo'lsa-da, litsenziat uchun haddan tashqari og'ir yoki standartdan foydalanishni amalga imkonsiz qiluvchi shartlarni qo'yish FRAND konsepsiyasining maqsadiga zid bo'lishi mumkin.

"Reasonable", ya'ni oqilona mezon, ayniqsa litsenziya to'lovlarini belgilash masalasida muhimdir. SEP bo'yicha royalti miqdorini aniqlashda patentning texnologik qiymati, uning standartdagi o'rni, bozor sharoitlari va boshqa iqtisodiy omillar hisobga olinishi mumkin. Shu sababli FRAND royalti uchun barcha holatlarda bir xil bo'lgan universal formula mavjud emas.

"Non-discriminatory", ya'ni kamsitmaydigan mezon esa bir xil yoki o'xshash vaziyatdagi litsenziatlarning asossiz ravishda turlicha shartlarga duchor qilinmasligini ta'minlashga qaratilgan. Biroq bu barcha litsenziatlarga mutlaqo bir xil litsenziya shartlari berilishi shart

degani emas. Tomonlarning bozordagi mavqei, foydalanish ko'lami, litsenziya hajmi va boshqa obyektiv omillar shartlarning farqlanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Shu jihatdan FRANDni oddiy shartnoma sharti sifatida emas, balki intellektual mulk huquqi va raqobat huquqi kesishmasida shakllanadigan murakkab huquqiy institut sifatida baholash mumkin.

SEP va FRAND o'rtasidagi bog'liqlik

FRAND masalasini SEP institutidan alohida ko'rib chiqish deyarli imkonsiz. Chunki SEPning asosiy xususiyati shundaki, patentlangan texnologiyadan foydalanish tegishli standartni amalga oshirish uchun zarur bo'lishi mumkin. Agar kompaniya standart talablariga mos mahsulot ishlab chiqarmoqchi bo'lsa, u tegishli SEP egasining patentidan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Natijada patent egasi va litsenziat o'rtasida litsenziya shartnomasini tuzish zarurati yuzaga keladi. Aynan shu bosqichda FRAND majburiyatlari muhim ahamiyat kasb etadi. SEP va FRAND o'rtasidagi munosabatlarda ikki xil xavf mavjud. Bir tomondan, patent egasi o'zining bozor kuchidan foydalanib, haddan tashqari yuqori litsenziya to'lovlarini talab qilishi yoki standartdan foydalanishni asossiz ravishda cheklashi mumkin. Ikkinchi tomondan esa, texnologiyadan foydalanuvchi tomon patent egasining qonuniy manfaatlarini e'tiborsiz qoldirib, litsenziya to'lovlarini to'lashdan qochishi mumkin. Shuning uchun FRAND mexanizmi ikki tomon manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga xizmat qiladi.

FRAND shartlarining raqobat huquqi bilan aloqasi

FRAND masalasining dolzarbligi faqat patent huquqi bilan cheklanmaydi. SEP egasining bozordagi mavqei kuchayishi raqobat huquqi nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Standartga kiritilgan texnologiya boshqa muqobil texnologiyalar bilan almashtirilishi qiyin bo'lgan holatlarda SEP egasi sezilarli muzokara kuchiga ega bo'lishi mumkin. Bu holat ayrim hollarda patentdan foydalanishni rad etish, haddan tashqari royalti talab qilish yoki litsenziyalash jarayonidan raqobatchilarni chiqarib tashlash kabi xavflarni yuzaga keltiradi.

Boshqa tomondan, litsenziatning FRAND muzokaralarida insofsiz xatti-harakati ham huquqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli FRAND nizolarida nafaqat patent egasining, balki litsenziatning ham xatti-harakatlari baholanishi lozim. Mazkur yondashuv FRANDning o'ziga xos "ikki tomonlama" tabiatini ko'rsatadi: u bir vaqtning o'zida patent egasining manfaatlarini himoya qilish va bozorda texnologiyadan foydalanish imkoniyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun ahamiyati

FRAND instituti O'zbekiston uchun hozircha nisbatan yangi yo'nalishlardan biri bo'lsa-da, mamlakatda raqamli texnologiyalar, elektron aloqa, telekommunikatsiya va innovatsion ishlab chiqarish rivojlanishi bilan uning amaliy ahamiyati oshishi mumkin. O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotga o'tishi jarayonida xalqaro texnik standartlardan foydalanadigan mahsulotlar soni ortib borishi kutiladi. Xususan, telekommunikatsiya uskunalari, smartfonlar, IoT qurilmalari va boshqa texnologik mahsulotlar SEP bilan bog'liq litsenziyalash munosabatlariga duch kelishi mumkin. Shu sababli O'zbekiston qonunchiligida SEP va FRAND bilan bog'liq nizolarni hal qilish mexanizmlarini rivojlantirish istiqboldagi muhim vazifalardan biri bo'lishi mumkin. Bunda xorijiy tajribani to'liq ko'chirish emas, balki milliy patent va raqobat huquqi tizimining xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirilgan mexanizmni shakllantirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, FRAND muzokaralarida tomonlarning xatti-harakatlarini baholash, litsenziya to'lovlarining oqilonaligini aniqlash va SEP egasining bozor

mavqeidan suiiste'mol qilinishining oldini olish masalalari kelgusida ilmiy va huquqiy tadqiqotlarning alohida yo'nalishiga aylanishi mumkin.

Xulosa

FRAND shartlari zamonaviy intellektual mulk va raqobat huquqining kesishgan nuqtasida shakllangan muhim mexanizmlardan biridir. Uning yuzaga kelishi texnologik standartlashtirish jarayonining rivojlanishi va standartlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan patentlardan foydalanish masalasining murakkablashuvi bilan bevosita bog'liq. FRANDning asosiy vazifasi patent egasining eksklyuziv huquqi bilan texnologiyadan foydalanishni istagan subyektlarning manfaatlari o'rtasida muvozanat yaratishdan iborat. "Adolatli", "oqilona" va "kamsitmaydigan" mezonlar ushbu muvozanatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

O'zbekiston uchun FRAND institutining dolzarbligi mamlakatda raqamli iqtisodiyot va texnologik bozorlarning rivojlanishi bilan ortib borishi mumkin. Shu nuqtayi nazardan SEP va FRANDga oid huquqiy munosabatlarni ilmiy jihatdan o'rganish, xorijiy tajribani tahlil qilish hamda milliy qonunchilikni kelajakdagi texnologik nizolarga tayyorlash muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Contreras J. L. Global Patent Prosecution Highway: A Comparative Analysis of Patent Law and Policy. – Cambridge: Cambridge University Press, 2021.
2. European Commission. Guidelines on the applicability of Article 101 of the Treaty on the Functioning of the European Union to technology transfer agreements. – Brussels, 2021.
3. European Telecommunications Standards Institute (ETSI). ETSI Intellectual Property Rights Policy. – Sophia Antipolis: ETSI.
4. Lemley M. A. Intellectual Property Rights and Standard-Setting Organizations. California Law Review, Vol. 90.
5. Shapiro C. Navigating the Patent Thicket: Cross Licenses, Patent Pools, and Standard Setting. Innovation Policy and the Economy, Vol. 1.
6. WIPO. Standard Essential Patents and FRAND Licensing. – Geneva: World Intellectual Property Organization.
7. World Trade Organization. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). – Geneva: WTO.
8. Toshkent davlat yuridik universiteti. Intellektual mulk huquqi: darslik. – Toshkent.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

XVII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, sentyabr

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.

XVII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.

2-jild, 17-son (14-sentyabr, 2026-yil). – 132 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 11-sentyabr.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.